

VOYAGA YETMAGAN BOLALARNING JABRLANUVCHIGA AYLANIB QOLISHI

Boboraximov Abror Baxramovich

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Oliy ta‘limdan
keyingi ta‘lim fakulteti mustaqil izlanuvchisi*

Saydullayeva Gulzira Obidxon qizi

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
3-bosqich kursanti*

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada voyaga yetmagan kim ekanligi va uning tushunchai ,voyaga yetmagan shaxslarning jabrlanib qolishi va jabrlanishining sabablari, voyaga yetmaganlarga nisbatan qanday ko‘rinishdagi huquqbuzarliklar sodir etilayotganligi, va ularning oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmagan, jabrlanuvchi, huquqbuzarlik, jabrlanish sabablari, zo‘rlik, bolalar va o‘smirlar.

VICTIMIZATION OF JUVENILE CHILDREN

ABSTRACT: This article discusses who a minor is and what they are, the causes of victimization and victimization of minors, the types of crimes committed against minors, and measures to prevent them.

Keywords: minor, victim, crime, causes of victimization, sorry, children and adolescents.

Zamon bilan hamnafas holda ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodini har tomonlama qo‘llab quvvatlash va ularga ijtimoiy tibbiy va psixologik tomondan yordam ko‘rsatish, ularni ta‘lim olishi va bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishi uchun yetarli darajada nazorat olib borish zarur hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib esa hali voyaga yetmagan bo‘lishiga qaramay o‘zini har tomonlama ko‘rsatib kelayotgan va yurtimiz sha‘nini baralla dunyoga tanitayotgan yoshlarimiz yo‘q emas albatta. Ushbu yoshlarimizdan nafaqat yoshlar va kattalar ham o‘rnak o‘rganishi lozim.

Ming afsuski mana shunday o‘sib ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodimiz, ertangi kunimizning poydevori bo‘lgan yoshlarimizni hayotiga, ularni ta‘lim olishiga erkin rivojlanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatayotgan g‘arazli niyatda bo‘lgan shaxslar ham jamiyatimizda uchrab turibdi. Bu turdagi qo‘shirnoq ichidagi bazi bir o‘zini “mehribon”

qilib ko‘rsatib voyaga yetmagan shaxslarga zo‘rluk ishlatib ularni jabrlanuchi bo‘lib qolishiga sababchi bo‘lib qolayotganlar hozirgi kunda juda ko‘p. Ammo faqatgina kattalar tomonidan emas balki voyaga yetmagan shaxslarning o‘zlari ham hatti harakatlari so‘zlari orqali jabirlanib qolishyapti.

Voyaga yetmagan shaxs o‘zi kim? Voyaga yetmagan shaxs deb — o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan o‘z huquq va majburiyatlarini to‘liq amalga oshira olmaydigan shaxs tushuniladi [1].

Voyaga yetmagan — bu huquqiy nuqtai nazardan, o‘zining barcha yuridik huquq va majburiyatlarini to‘liq bajarishga qodir bo‘lmagan, ya’ni yetarli yoshga yetmagan shaxsni anglatadi. Odatda, bu yosh 18 yoshga teng yoki undan kichik bo‘ladi, lekin ba’zi mamlakatlarda bu yosh chegarasi 21 yoshgacha bo‘lishi mumkin.

Voyaga yetmagan shaxslar yuridik jihatdan ba’zi cheklovlarga ega bo‘lib, masalan:

- Shartnomalar tuzish: Voyaga yetmagan shaxslar, masalan, tijorat shartnomalarini tuzishda ota-onalari yoki vasiylarining roziligini olishlari kerak.

- Jinoyat javobgarligi: Voyaga yetmaganlar jinoyat sodir etganida, ular maxsus sud tizimi yoki jazo tizimiga murojaat qilishadi. Odatda, yoshlarning ruhiy va psixologik holati hisobga olinadi.

- Ota-onalar yoki vasiylar mas’uliyati: Voyaga yetmagan shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda ota-onalari yoki vasiylari yuridik mas’uliyatga ega bo‘lishadi.

Zo‘ravonlik nima jabrlanuvchi kim? Zo‘ravonlik bu— xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazish choralari qo‘llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog‘lig‘i, jinsiy daxlsizligi, sha’ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g‘ayrihuquqiy harakat .

Zo‘ravonlikning asosiy maqsadi — boshqa odamni qo‘rqitish, ustunlikka ega bo‘lish, yoki boshqarishdir. Bu har qanday shaklda bo‘lishi mumkin va individual, oila ichidagi yoki jamoaviy darajada sodir bo‘lishi mumkin. Zo‘ravonlikning eng katta muammolaridan biri — qurbonlarning ko‘pincha so‘zlay olmasligi, o‘zlarini himoya qila olmasligi va jamiyat tomonidan ko‘pincha norozilikka sabab bo‘lishidir[2].

huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi — jismoniy, ma’naviy yoki mulkiy zarar yetkazilganligi oqibatida huquqbuzarlikdan jabrlangan shaxs. [3].

Voyaga yetmagan shaxslarning huquqbuzarklikdan jabrlanuvchiga aylanib qolishi va uning sabablari: quyidagicha bo‘lishi mumkin birinchidan voyaga yetmagan shaxslarning maktablarda to‘g‘ri to‘liq va sifatli ta’lim olmayotganligi ikkinchidan voyaga yetmagan shaxslarning ota onasi yoki ularni o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan shaxs ustidan yetarli darajada nazoratni olib borilmayotganligi uchinchidan voyaga

yetmagan shaxslarning jinsiy jinoyatlar o‘zi nima kabi savollariga javob yo‘qligi ya‘ni ularga ushbu jinoyatlar haqida tushunchalar berilmaganligi to‘rtinchidan voyaga yetmagan shaxslar ayniqsa qizlarning yarim yalang‘och ochiq sochiq kiyimlarni kiyib maktablarga kelishi jamoat joylarida yurishi va bunga ota onasining yoki yaqinlarining befarq bo‘lishi va voyaga yetmagan shaxslar ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p vaqtlarini besamar o‘tkazayotganliklari voyaga yetmaganlarning huququbuzarlik yoki jinoyatlardan jabrlanib qolishiga sabab bo‘lyapti. Voyaga yetmagan shaxslarning jabrlanuvchi bo‘lib qolishiga olib keladigan omillar bir nechta ijtimoiy, psixologik, madaniy va iqtisodiy faktorlar bilan bog‘liq. Ushbu omillar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, bolalar va o‘smirlarning zaifligini kuchaytiradi va ularni zo‘ravonlik, ekspluatatsiya yoki boshqa zararli vaziyatlarga olib keladi. Quyida bunday omillarni ko‘rib chiqamiz:

1. Oilaviy omillar

- Oilaviy zo‘ravonlik: Oilada jismoniy, ruhiy yoki jinsiy zo‘ravonlik mavjud bo‘lsa, voyaga yetmagan shaxslarning jabrlanishi ehtimoli yuqori. Ota-ona yoki qarindoshlar tomonidan amalga oshirilgan zo‘ravonlik bolalarga o‘z huquqlarini himoya qilishni o‘rgatmaslikka va xavfsiz yashashga imkon bermaydi.

2. Ijtimoiy omillar

- Ijtimoiy tengsizlik va kamsitish: Ijtimoiy tabaqalanish, gender asosidagi kamsitish yoki irqchilik bolalarni zo‘ravonlikka duchor qilishi mumkin. Agar biror bolaga o‘z huquqlari yoki qadriyatlari bo‘yicha tenglik taqdim etilmasa, u o‘zini himoya qila olmaydi.

3. Psixologik va emotsional omillar

- O‘zini qadrsiz his qilish: Psixologik zaiflikka ega bo‘lgan bolalar o‘zlarini himoya qila olishmaydi va ular ko‘pincha manipulyatsiya qilinadi. O‘zini qadrsiz his qilish, past o‘zlikni anglash yoki ishonchsizlik kabi holatlar bolani zo‘ravonlikka ochiq qiladi.

4. O‘qish va ta‘lim bilan bog‘liq omillar

- Ta‘limning yetishmasligi: O‘z huquqlarini bilmaslik, jinsiy tarbiya yoki zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha bilimning yetishmasligi bolalarni ekspluatatsiya qilishga olib keladi. Ta‘limga kirish imkoniyati cheklangan bolalar o‘z huquqlari haqida to‘g‘ri ma‘lumotga ega bo‘lmaydi.

5. Iqtisodiy omillar

- Iqtisodiy zaiflik: Iqtisodiy qiyinchiliklar, oilaning moddiy ahvoli yomon bo‘lishi bolalarning ekspluatatsiyaga, mehnatga jalb qilinishiga yoki tashqi zo‘ravonlikka duchor bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ba‘zi hollarda, qashshoqlik bolalar uchun xavfli vaziyatlarni yuzaga keltiradi.

6. Internet va texnologiyalar orqali xavf

- Onlayn zo‘ravonlik: Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali kiberbullizm va onlayn ekspluatatsiya (grooming) bolalarni tahdidga solishi mumkin. Onlayn shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan zo‘ravonlik yoki manipulyatsiya ularni haqiqiy dunyodagi tajovuzlarga olib kelishi mumkin.

7. Jinsiy va gender asosidagi zo‘ravonlik

- Jinsiy zo‘ravonlik: Voyaga yetmagan qizlar va o‘smirlarning jinsiy zo‘ravonlikka uchrashi, ularni ekspluatatsiya qilish yoki zo‘rlash holatlari ko‘paygan. Bunda jinsiy aloqalar yoki zo‘ravonlik ba‘zan "normal" deb qaralishi, yoki ularning huquqlari e‘tiborga olinmasligi mumkin.

Ushbu yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan omillar va sabablar voyaga yetmagan shaxslarning jabrlanuvchiga aylanib qolishlariga va ularning kelajakka qo‘rquv ko‘zi bilan qarashlariga sabab bo‘lmoqda . Bu boradagi salbiy holatlarni oldini olish maqsadida eng avvalo maktablarda va maktabgacha ta‘lim muassasalarida sifatli ta‘limlarni berish va voyaga yetmaganning ota onalari tomonidan nazoratlar olib borishi va ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida ularni turli xil sport va madaniy tadbirlarga jalb qilish zarur deb hisoblayman. Zero O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 26- moddasida Insonning shani va qadr qimmatini daxlsizdir Insonning sha‘ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o‘tkazilishi mumkin emas, ekanligi aytib o‘tilganligi ham voyaga yetmaganlarning xavfsizligi davlat tomonidan ham himoyalanganligi ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak voyaga yetmaganlarning jabrlanib qolishini oldini olish uchun nafaqat ularning Ota Onalari balkim maktabdagi o‘qtuvchilari ham uning yashash joyidagi mahalla ham e‘tiborsiz bo‘lmasliglari zarur. Chunki yoshlarimiz bizning kelajagimiz ertangi kunimizning poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi" qonun (10.09.2010 y)

2. "Xotin qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi " qonun (02.09.2019y)

3. "Xuquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi" qonun (14.05.2014 y)

4. Internet manba: <https://uz.wikipedia> (murojaat vaqti: 02.11.2024 y)

5. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Elektron

manba: www.lex.uz

6. Huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirishda “Smart mahalla” mobil axborot tizimidan foydalanishni takomillashtirish: O‘quv qo‘llanma. / Mas’ul muharrir: T.B.Mamatqulov, Q.A.Saitqulov., B.F.Alimov, A.B.Boboraximov, A.R.Abdug‘ofarov, Q.M.Ochilov., .– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 19.08.2023y. – 56 B.

7. Боборахимов, А. Б. (2022). Ички ишлар органлари ва фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари ҳамкорлигини “Хавфсиз маҳалла” тамойили асосида самарали ташкил этиш механизмлари. Journal of new century innovations, 19(1), 99-107..

8. Боборахимов, А. Б. (2023). Ички ишлар органлари профилактика инспекторларининг “сурункали алкоголизм, гиёҳвандлик ёки заҳарвандликка мубтало бўлган шахслар” ни мажбурий даволашга юбориш фаолияти. o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(23), 334-338..

9. Boboraximov A., Qavomov A. Huquqbuzarliklar profilaktikasida “Ijtimoiy profilaktika” tushunchasi va uni amalga oshirishdagi chora-tadbirlar tizimi //Aktualniye voprosi obespecheniya prav jenщин i predotvrashcheniya nasiliya V semye V Uzbekistane. – 2024. – T. 1. – №. 1. – S. 34-38.